



INNOVATION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNI RAG'BATLANTIRUVCHI MOLIYAVIY MEXANIZM

INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND FINANCIAL MECHANISMS FOR THEIR STIMULATION

¹**Tuychiyev Abduraxmon
G'ofurovich**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, iqtisodiyot fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD). G-mail: a.tuychiyev69@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada barqaror iqtisodiy rivojlanishning yangi texnologiyalarini moliyalashtirish mexanizmlari va usullarini yaratish hamda ularni amaliyotga joriy etishda ilmiy tadqiqotlarning roli va ahamiyati yoritib berilgan, shuningdek, iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bo'lgan innovatsiyalar transferini moliyalashtirish va ularni tijoratlashtirishga qaratilgan masalalarning samarali yechimiga erishish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Eng. - This article examines the role and importance of scientific research in the creation of mechanisms and methods for financing new technologies for sustainable economic development and their implementation, as well as proposals and recommendations for achieving an effective solution to issues aimed at financing and commercializing the transfer of innovations, which is one of the main factors in economic development.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *innovatsiya, inson kapitali, innovatsion faoliyat, inklyuziv innovatsion rivojlanish, innovatsiyalar transferi, kichik biznes, start-up (start-up), innovatsiyalar transferini moliyalashtirish, kriptovalyutalar emissiyasi.*

❖ *innovation, human capital, innovative activity, inclusive innovative development, innovation transfer, small business, start-up, financing the transfer of innovations, issuance of cryptocurrencies.*

Kirish.

Global jahon iqtisodiyoti barqaror rivojlanishida kichik biznesning innovatsion rivojlantirilishi o'ta muhim ilmiy va amaliy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilib, ushbu soha faoliyatini ichki va tashqi innovatsiyalar transferi va tijoratlashtirilishini moliyalashtirish hajmi va samaradorligini oshirib borish har bir davlat uchun muhim vazifaga aylangan. Zero «Jahon iqtisodiyotining inklyuzivlik omillariga bog'liqlikda rivojlanishi innovatsiyalar transferi va tijoratlashtirilishini moliyalashtirishning ahamiyatini keskin oshirib bormoqda. Bugungi

kunda innovatsion faoliyat natijalari tez va keng tarqalish xususiyatiga ega bo'lib, ular ilg'or rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining miqdoriy va sifat jihatidan o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyo xalqlari turmush darajasining oshish tendensiyalarida o'z aksini topayotgan bunday o'zgarishlar mamlakatlarni innovatsiya sohasida yuqori o'rinlarga ega bo'lish uchun raqobatlashishga majbur qilmoqda [1].

Bu esa o'z navbatida, bugungi kunda ilmiy-innovatsion salohiyatni keskin oshirib borishni, innovatsiyalar transferini tijoratlashtirish va ularni moliyalashtirish

mexanizmining samadorligini oshirishning yangi yo'llarini izlab topishni taqozo etmoqda. Shuning uchun hozirda dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda innovatsion faoliyat asosiy omil sifatida qaralmoqda. O'zbekistonda ham innovatsion faoliyat va uning natijalarini kichik biznes rivojlanishiga ichki va tashqi innovatsiyalar transferi va tijoratlashtirilishini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish zarurati hozirgi globallashtirish jarayonida mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Xorij mamlakatlari bo'yicha amalga oshirilgan bibliografik tahlil asosida innovatsiyalar va innovatsion faoliyat sohasidagi nazariy qarashlar, metodologik bazis va rivojlanish tendensiyalariga hissa qo'shgan xorijlik olimlar qatoriga, masalan, quyidagilarni kiritish mumkin: J. Madsen, R. Solow, P. Draker, N. Menkyu, Y. Shumpeter, Sh. Groh, J. Hauschildt, S. Salomo va S. Chepell [2]. Xorij mamlakatlaridagi mavjud nazariy-metodologik bazisni asosan endogen, va yarim endogen innovatsion iqtisodiy o'sish hamda R&D (Research and Development) va inson kapitalini rivojlantirish modellari tashkil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Xalqaro miqyosda kichik biznesga innovatsiyalar transferini moliyalashtirish va tijoratlashtirishga qaratilgan masalalarning samarali yechimiga erishish bo'yicha uzluksiz ravishda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda va bunda AQSh, G'arbiy Yevropa, Yaponiya, Singapur, Koreya Respublikasi olimlari ularning metodologik va amaliy ahamiyatiga, MDH mamlakatlarida esa ko'proq nazariy jihatlariga urg'u berilmoqda. Hozirda startaplarni bo'yicha to'liq ilmiy tadqiqot bo'lib «Startup Genome Report» hisoblanadi. Mavjud tadqiqotlardan olingan natijalarga asoslanuvchi biznes subyektlarini innovatsion rivojlantirishning milliy va xalqaro tizimlari

uzluksiz takomillashtirilmoqda. E'tirof etish joizki, olib borilgan tadqiqotlarda innovatsiya omili muammolari, startaplarni tashkil etish va ularni rivojlanishi holati va muammolari ekspert so'rov darajasida o'rganilgan. Biroq, kichik biznes sub'ektlariga innovatsiyalar va ularning transferini moliyalashtirish mexanizmi samadorligini oshirish va innovatsion faoliyat sohasidagi olimlarning nazariy qarashlari, innovatsion rivojlanish tendensiyalari, innovatsiyalar va investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri bilan bog'liqligi hamda innovatsiyalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bilan bog'liq masalalar alohida tadqiq etilmagan.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirilishi va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy loyihalar va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish uchun innovatsion-investitsion muhitni yaxshilash, ilmiy-innovatsion faoliyat samadorligi va samarasini oshirish, ilmiy-tadqiqot loyihalari va natijalarini milliy va xalqaro miqyosdagi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar yaratish uchun zarur shart-sharoitlarga yaratishga alohida e'tib qaratilmoqda. Shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgarilashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi.

O'zbekistonda ishlab chiqarish hajmini va iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshiruvchi innovatsiya omili va uning manbalarini aniqlash va rivojlantirish uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy vazifalari hisoblanadi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasining qator tegishli qonunosti hujjatlari, kichik biznesga innovatsiyalar transferi moliyalashtirilishi mexanizmini

takomillashtirish masalalarini zaruratga aylantirdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi biznes subyektlari o'z faoliyatlarida yangi texnologik nau-xaularga tez ko'nikishlari va o'zlashtirishlari zarur bo'lganliklari sababli, g'arb davlatlarida xalqaro raqobat qobiliyati innovatsiya omilini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida amalga oshirilayotgan faol investitsiya siyosati, ilmiy-texnik sohaning innovatsion faoliyati, ularning natijalarini transferi va IMO tijoratlashtirilishini rag'batlantirish, takomillashgan moliyalashtirish mexanizmlarini izlab topishni taqazo etmoqda. Bunda ushbu natijalar davlatning zamonaviy progressiv makroitisodiy siyosati kontekstidagi mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish va moliya-kredit sohasining maqsadlari va talablariga javob berishi kerak. Buning uchun modernizatsiya loyihalarini amalga oshirish va ishlab chiqarishni qayta qurollantirishda moliyalashtirilish hajmlari yildan-yilga o'sib borayotgan davlat budjeti mablag'lari asosida yaratilayotgan ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiiq qilinishi lozim. Bularning yechimi uchun ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiya va tizimli moliyaviy injiniring qoidalariga tayanish maqsadga muvofiqdir [3].

Innovatsiyalar transferi va IMO tijoratlashtirilishini innovatsion-investitsion muhitning qulay tizimisiz yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarning yechimini to'liq hal qilishda va hatto sezilarli daromadlar manbai sifatida qarash mumkin emas. Ushbu tizimdan iqtisodiy foyda davlat uchun ham, shuningdek jamiyat uchun ham innovatsiyalarni tijoratlashtirish jarayonining o'zida paydo bo'ladigan moliyaviy faoliyatidan tashkil topadi. Ushbu tizim innovatsiyalar transferi

ilmiy innovatsion faoliyat sub'ektlariga (IFS) va butun jamiyatga tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, tadqiqotlarga buyurtmalar oqimini yaratish, yangi investitsiyalar, yangi texnologiyalar, yangi ish o'rinlarini yaratish, yuqori qo'shimcha qiymatli yangi tovarlar hajmi va foydasini, shuningdek davlat budjetiga soliq tushumlarini oshirish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Ilmiy innovatsion faoliyat natijalarini transferi va tijoratlashtirish sohasidagi ilmiy innovatsion faoliyat (IIF) muammolari orasida quyidagilarni ajratib o'tish mumkin:

- IIFni bozor talabi hisobisiz amalga oshirish. Ushbu muammo IFSlarining bozorni o'rganish va undagi ishlar bo'yicha to'liq bo'lmagan va kam samarali bo'lgan menejment va marketing ishlari bilan bog'liq;

- IIF boshqaruvining ko'pchilik subyektlari raqobat va risklar sharoitlarida ishlashga tayyor emasligi;


- innovatsiyalarning tannarxi yuqoriligi va ular risklarini haqqoniy baholash usullarining eskiligi;

- IIFning barcha turlarini, innovatsiyalar transferi loyihalarini moliyalashtirish va tijoratlashtirish mumkin bo'lgan IIF tizimi va mexanizmlari innovatsion-investitsion ta'minotining zamonaviy va universal tizimi mavjud emasligi. Bunda moliyaviy institutlarning qiziqishlari, moliyalashtirish muddatlari, hajmlari va manbalari har doim ham bir-biri bilan o'zaro mos kelmasligi, IIF va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash mamlakatning milliy siyosati, qoidaga ko'ra davlat budjeti va innovatsion salohiyat imkoniyatari chegaralanib qolmoqda.

Shunday qilib, mamlakatda qulay innovatsion-investitsion muhitni ta'minlash tizimini rivojlantirish shaklini rag'batlantiruvchi yangi moliyalashtirish mexanizmini yaratish yo'li orqali mavjud resurslardan va salohiyatdan maksimal darajada foydalanish va olingan natijalarni nafaqat ilmiy bilimlar shaklida, balki ushbu natijalarni bozorga u yoki bu ko'rinishda

iqtisodiy amalga oshirilishini ta'minlash zarur. Buning uchun, avvalom bor, yangi ilmiy bilimlar yaratadigan ilmiy kollektivlar va bo'limlar qatoriga, IIF natijalarini tijoratlashtirishga mo'ljallangan, kompleks

xizmat ko'rsatishni ta'minlaydigan, natijalarni talab qinishini rag'batlantiradigan va ushbu natijalarni iqtisodiy amalga oshirish mexanizmini o'z ichiga oladigan infratuzilma yaratish talab qilinadi.



1-rasm. Innovatsiyalar transferi va IMO tijoratlanishini rag'batlantiruvchi moliyaviy mexanizmi [5]

Bunda: IB – innovatsiyalar bozori; I – IFS (intellektual mulkka bo'lgan huquq egalari); IT – innovatsiyalarga talabgorlar (transfer va tijoratlashtirishga), ya'ni Start-up; IMS – IIFni va uning natijalari transferi va tijoratlashtirilishini moliyalashtiruvchi sindikat (Davlat va hususiy sektor sherikchiligiga asoslangan); D – Davlat (IFSning IIFni qo'llab-quvvatlovchi organ); TMM – transfer (tijoratlashtirish) maslahatchisi va boshqaruvchisi.

Bunday infratuzilma (1-rasmda ko'rsatilganidek), bir tomondan salohiyatli buyurtmachilarni qiziqтира oladigan investorlar (innovatsion faoliyat subyektlari) bilan ishlashni, boshqa tomondan, topshiriqlarni shakllantirib va ularni innovatorlar oldiga qo'ya oladigan, ilmiy innovatsion faoliyat natijalari iste'molchilari bo'lish imkoniyatiga ega bo'lgan ishlab chiqarish va biznes subyektlari o'rtasidagi uzviy aloqalarni o'rnatishi va ularni qo'llab-quvvatlashi kerak.

Yuqoridagi 1-rasmda shunday infratuzilmaning sxematik modeli keltirilgan.

Ushbu sxemada D va IMS intellektual mulkka bo'lgan huquq egalarini moliyaviy, huquqiy va tashkiliy qo'llab-quvvatlaydi.

IMS (investorlar nomidan) moliyaviy manbalarga ega bo'lishi va I bilan birga IT aksiyalari paketiga (payiga) ega bo'lishi lozim.

D va IMSning muhim funksiyasi bo'lib, ilmiy tadqiqotlarga (fundamental, amaliy va innovatsion) davlat buyurtmalarini tasdiqlash va IB real talabini o'rganish; IIF natijalari transferini monitoring asosida moliyalashtirilishi va tijoratlashtirilishi bo'yicha yagona davlat reestrini yuritish; innovatsiyalarning iqtisodiy realizatsiyasi bo'yicha kafolatchi sifatida namoyon bo'lish, shuningdek, davlat-investitsiyaviy obligatsiyalari bo'yicha kafillik berish. Davlat grantlarini ajratib berishda IIF jarayonida yaratilgan va transferlantiriluvchi intellektual mulk huquqi himoyasiga katta ahamiyat berilishi kerak [6].

Davlat tomonidan innovatsion rivojlanishga soliq imtiyozlari va kreditlari joriy qilinishi mumkin. Shu bilan birga, aksiz solig'ining bir qismi iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun yuborilishi mumkin, chunki innovatsiyani iqtisodiy amalga oshirish qo'shimcha foyda yaratadi. IMS davlatning vaqtincha qo'llab-quvvatlovchi ishtirokidagi *start-up* kompaniyalarini moliyalashtiradi, bu esa IMS tomonidan vaqtincha ishtirok etish ulushlarini investorlarga maxsus davlat investitsiya obligatsiyalarini chiqarish va joylashtirish orqali qayta moliyalashtirish yo'li bilan amalga oshirish imkonini beradi. IMS kafolatlagan davlat investitsiya obligatsiyalari investorlarga, shuningdek xorijiy investorlarga ham sotiladi. Ushbu obligatsiyalar o'rtacha sifatga ega bo'lib, ular keyinchalik IT aksiyalariga konvertatsiya qilinadi.

Xulosa va takliflar.

Innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun inetellektual mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqini tashkilotlarga emas, balki innovator(I)larga berish zarur. Bundan tashqari, innovatorlarning litsenziya shartnomalari bo'yicha yig'imlar va foizlar to'lash ko'rinishidagi daromadlariga daromad solig'i solinmasligi kerak va innovatsiyalar qandaydir kompaniyaning ustav fondiga kiritilganda, ko'rsatilgan daromad bilan dividendlar olish huquqiga ega bo'lishi kerak.

Yuqoridagi tadqiqotlarga asoslangan holda quyidagi xulosa va takliflarni keltirish maqsadga muvofiq.

Butun dunyoda, iqtisodiyotning texnologik sohalarida jadal o'sish sur'atlariga erishilishida texnologiyalar transferi hal qiluvchi rol ni egallamoqda. Chunki innovatsion sikl bosqichlari zanjirida uzatish texnologiyasi "zaif aloqa" hisoblanadi; bir tomondan, bu juda ko'p kuch va resurslar talab qiladi, ikkinchi tomondan, katta xavflarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ushbu bosqichda ko'pincha

qaror qabul qilish va intellektual mulk huquqiga egalik qilish huquqi zanjir doirasida bir-biriga o'tishi mumkin (intellektual mulk egasi, investor va ishlab chiqaruvchi o'rtasida). Ushbu bosqichda turli bilim sohalaridan mutaxassislar talab qilinadi: moliyachilar, patentchilar, menejerlar, marketologlar. IIF uchun qulay sharoitlar, sifatli mahsulot, yaxshi menejment va moliyalashtirishning samarali davlat va xususiy tizimi (IMS) muvaffaqiyatning kaliti hisoblanadi.

Iqtisodiy o'sish yoki innovatsion o'sish ikki omilga bog'liq: ichki innovatsion salohiyat va tashqi innovatsion salohiyat.

Xorijiy mamlakatlar bibliografik tahliliga asoslanib, innovatsiyalar va innovatsion faoliyat sohasida nazariy qarashlar, metodologik asos va rivojlanish tendensiyalariga hissa qo'shgan xorijiy olimlar qatorida quyidagilarni kiritish mumkin: J. Madsen, R. Solow, P. Draker, N. Menkyu, Y. Shumpeter, Sh. Groh, J. Hauschildt, S. Salomo va S. Chapel [7].

Rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishda innovatsiya omili hal qiluvchi o'rin tutadi. Maxsus bir sohadagi innovatsiyalar nafaqat ushbu sohaning samaradorligini oshiradi, balki butun iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, ilmiy tadqiqotlar, ta'lim va ishlab chiqarish bilan integratsiyani moliyalashtirish tendensiyasi ilmiy asoslangan mahsulotni joriy etish muddatini – fundamental tadqiqotlardan to tajriba-konstruktorlik ishlab chiqarishgacha – qisqartiradi.

Bu jarayonda oliy ta'lim muassasalari yangi ilm-fan va ilmga asoslangan biznesga tayangan generatsiya markazlari sifatida asosiy rol o'ynaydi. Demak, ilm-fan, texnika, texnologiyalar va moliyaviy vositalar yordamida innovatsion transferi mintaqaviy ishlab chiqarishga rag'batlantirish haqiqiy

sektorni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion transfer bo'yicha jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ilm-fan sohalarini moliyalashtirishning roli va hajmi jahon iqtisodiyotida ortib bormoqda. AQSh, Yevropa Ittifoqi va Yaponiyada YaIM 70-90 foizgacha innovatsiyalarni iqtisodiyotga joriy etish hisobiga o'sgan. Xalqaro texnologiyalar

transferi esa asosiy eksport daromadiga aylangan [5].

Yuqoridagi tavsiya va takliflarning amalga oshirilishi milliy innovatsion rivojlantirish tizimining samarali shakllanishiga ko'maklashadi, bu esa O'zbekistonda qulay biznes, investitsion va innovatsion muhit shakllanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madsen Jakob "Can Second-Generation Endogenous Growth Models Explain The Productivity Trends and Knowledge Production In the Asian Miracle Economies?" Monash University, 2009. - 31 p.
2. To'ychiyev, Abduraxmon. Agrobiznesni innovatsion rivojlantirish loyihalarini moliyalashtirishning metodologik asoslari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT 1.11-12 (2023).
3. Becker Hans Paul, Peppmeier Arno. Investition und Finanzierung. Grundlagen der betrieblichen. Finanzwirtschaft. 8. Auflage. Springer Fachmedien Wiesbaden GmbH, ein Teil von Springer Nature 2018. 369 p.
4. Gofurovich, Tuychiev Abdurakhmon. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FINANCIAL MARKETS IN THE MANAGEMENT OF FINANCIAL ASSETS. International journal of advanced research in education, technology and management 4.5 (2025): 357-362.
5. Tuychiyev Abdurakhmon Gofurovich, associate professor, PhD, Tashkent State University of Economics. (2025). COMMERCIALIZATION AND FINANCING OF INNOVATION.zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14913071>
6. Туйчиев, А. Г. (2019). Международные и региональные тенденции и проблемы финансирования инноваций и их трансферта в малый бизнес. Финансовый менеджмент, (5), 62-71. <https://dis.ru/library/707/37989/>
7. Shoha'zamiy Sh.Sh. Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari. Darslik. - T.: Iqtisod-moliya, 2018. - 492 b.